



## ULUG'BEK HAMDAMNING "SABO VA SAMANDAR" ROMANIDA OBRAZLAR TAHLILI.

**Bobonazarova Mohinur G'ayratovna**

NavDU Adabiyotshunoslik yo'nalishi

1-bosqich magistranti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.21131832>

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada Ulug'bek Hamdamning "Sabo va Samandar" romani asosida obrazlarning psixologik xususiyatlari namoyon etiladi. Unda Sabo va Samandar, Nodir va Nilufar, Aziza, Sherdil kabi obrazlar orqali muhabbat, sadoqat, ichki iztirob tushunchalari ochiq lanadi.

**Kalit so'zlar:** Ulug'bek Hamdam, psixologik tahlil, obraz, insoniy xislatlar, ruhiy holat, muhabbat.

**Аннотация.** В данной статье на основе романа Улугбека Хамдама «Сабо и Самандар» раскрываются художественно-психологические особенности главных и второстепенных образов. Через образы Сабы и Самандара, Нодира и Нилуфар, Азизы, Шердила раскрываются такие понятия, как любовь, верность и внутренние переживания.


**Ключевые слова:** Улугбек Хамдам, философская интерпретация, образ, человеческие качества, душевное состояние, любовь.

**Abstract.** This article examines the artistic and psychological features of the main based on Ulugbek Hamdam's novel "Sabo and Samandar." Through the images of Sabo and Samandar, Nodir and Nilufar, Aziza, and Sherdil, concepts such as love, loyalty, and inner emotional struggle are revealed.

**Keywords:** Ulugbek Hamdam, psychological analysis, image, human qualities, mental state, love.

Istiqlol davri o'zbek nasri g'oya va mazmun jihatdan shakllanib, insonning ruhiy olamini o'rganish va davrning ijtimoiy, ma'naviy holatiga estetik munosabat bildirish bilan xarakterlanadi va natijada o'zbek nasrida psixologik tahlil, falsafiy fikrlash, ramziy ifodalar va badiiylashtirish yuqori po'g'onaga ko'tarildi. Bu davr adabiyotida o'ziga xos uslubga ega ijodkorlardan Ulug'bek Hamdam ijodi ham o'z o'rniga ega. Yozuvchi o'zbek romanchiligiga o'zgacha ruh va kayfiyat olib kirgan. Uning har bir asarida yangilik ifodasi sezilib turadi, ayniqsa, obrazlarni hech kimga o'xshamaydigan yo'sinda tasvirlashi, asar kompozitsion tuzilishiga ahamiyat berishi, g'oyalarni davr bilan bog'lab, aniq ifodalar bilan berishi farq qiladi.

Ulug'bek Hamdamning "Sabo va Samandar" romani ishq va muhabbatning zamonaviy talqinini ko'rsatib bergan asar hisoblanadi. Unda faqatgina Xudoga qaytish, ruhiy poklanish va inson o'z "men"ini taftish etish kabi holatlar Nodir va





ITALY

## SCIENCE AND INNOVATION IN THE EDUCATION SYSTEM

International scientific-online conference



ITALY

Nilufar, Sabo va Samandar obrazlari orqali ochib beriladi. Avvalambor, badiiy obraz nima degan savolga javob sifatida adabiyotshunos olimlarning tavsifiga qarasa, Dilmurod Quronovning badiiy obraz masalasiga oid fikrlarini alohida e'tirof etish kerak. Olim "Badiiy obraz borliqning (undagi narsa, hodisa va b.) san'atkor ko'zi bilan ko'rilgan va ideal asosida ijodiy qayta ishlanib, hissiy idrok etish mumkin bo'lgan shaklda ifodalangan aksidir", deya ta'kidlaydi.[3,90].

Izzat Sulton esa badiiy obraz tushunchasini quyidagicha izohlaydi: "Badiiy asarda ozmi-ko'pmi tafsilot bilan tasvir etilgan personaj obraz yoki xarakter deb ataladi. Xarakter (obraz—insonning tipiklashtirilgan va individuallashtirilgan tasviri. Xarakter kishilarning ma'lum toifasiga xos xususiyatlarni ma'lum davrga, muhitga, kasbga, yoshga, jinsga mansub kishilarning sifatlarini yorqinlik bilan ifoda etadi. Xarakterda yozuvchining kishilarga va hayotga munosabati, hayotiy hodisalarga bergan estetik bahosi yaqqol ko'rinadi".[2,103].

Ulug'bek Hamdam "Sabo va Samandar" asarining har bir obrazini mukammal ravishda tasvirlagan.

Asarning boshidan o'rin olgan Nodir va Nilufarga to'xtaladigan bo'lsak, ushbu obrazlar orqali adib nafaqat ikki sevishganning haqiqiy muhabbatini, balki ijtimoiy va atrof-muhit, turli xil an'ana, urf-odatlar va ota-onaning farzandiga nisbatan munosabatini ham konflikt asosida yoritib beradi. Ularning bir-biriga nisbatan ishqiy oddiy hissiyot sifatida emas, insonni hayotga va ichki va tashqi olam bilan kurashga undovchi kuch sifatida talqin etiladi. Nodir va Nilufar bir qishloqda qo'shni bo'lib yashasa-da, ularning oilaviy muhiti, sharoiti farq qilardi. Nodir erkin, intiluvchan, hissiy jihatdan ancha pishiq va tartibli hamda oilaviy holati oddiyroq bo'lsa, Nilufar ham ibo, hayo, orzulari sari qo'rqmasdan qadam tashlaydigan boy qiz timsolida gavdalanadi. Yozuvchi Nilufarning holatini psixologik detallarga urg'u bergan holatda ochgan, jumladan Nodir bilan bo'lgan suhbatda "Sizammi?" degan qisqa, ammo hayrat va quvonch to'lsa savol uning ruhiyatidagi bir ichki burilishni yasaydi. Bu kichik lahza esa uning qalbida muhabbat uchqunlarini sochadi. Ota-onasining bosimi sababli, majburan turmush qurayotgan qiz "sevgi va bosim" o'rtasida qolgan murakkab ayol obraziga aylanadi. Nodir esa muhabbatni ulug'laydigan haqiqiy er yigit sifatida namoyon bo'ladi. U Nilufarga bo'lgan sevgisini vaqt, masofa va turli ijtimoiy to'siqlarga qaramasdan saqlay oladi. Asardagi eng ta'sirli epizodlardan biri- Nodir va Nilufarning so'nggi uchrashuvi bo'lib, aynan mana shu joyda bu ikki qahramon muhabbatning oliy cho'qqisiga erishadi. Daryo bo'yidagi vahimali tasvir ularning ichki kechinmalarini ko'rsatib beradi. Ular bir-birini qattiq sevishi, ammo ota-onalarining kuchli bosimi sababli, taqdirga tan berib, ishqning fojiviy mohiyatini





ITALY

## SCIENCE AND INNOVATION IN THE EDUCATION SYSTEM

International scientific-online conference



ITALY

ochib beradi. Bu muhabbatni esa, “Layli va Majnun” dostonining zamonaviy talqini sifatida ko’rsak bo’ladi.

Ushbu romanning asosiy qahramonlaridan yana biri – Samandar va Sabo. Ulug’bek Hamdam nima uchun Sabo va Samandar ismlarini tanlagan? Bu ismlarda ramziy ma’no bormi?

“Samandar” – adabiy talqinda bu nom muhabbat va hayot sinovlarida “yonib yashaydigan”, lekin baribir o’zligidan vos kechmaydigan inson deb tahlil qilinadi.

Romandagi Samandar obrazi adib yaratgan yorqin obrazlardan biri. U shunchaki muhabbat haqidagi ertakning qahramoni emas, balki sevgi orqali o’zini anglaydigan, ruhiy kamolot sari bardam qadam tashlaydigan haqiqiy muhabbat kuychisidir. Samandar timsolida zamonaviy, ma’rifatli, dunyoqarashi keng, teran fikrli, qalbi ochiq inson obrazini yaratishga erishgan. Samandar kasb jihatdan adabiyot o’qituvchisi bo’lib ishlaydi. Shuning uchun ham uning xarakteri va harakatida qo’pollik sezilmaydi. Samandar har bir voqealikni oddiy qabul qilib qo’ymaydi, balki badiiy tafakkur va nozik tuyg’ular bilan birgalikda ijobiy qabul qiladi. U uchun muhabbat hamma insonda uchraydigan oddiy tuyg’u emas, insonni ma’naviy yuksaltiruvchi ilohiy kuch, ilohiy ne’matdir. Ba’zi kitobxonlar “Mubolag’a bilan yaxshi ko’rilgan tuyg’u” deb o’ylashi mumkin, lekin u Saboni qalbining eng pok va muqaddas hislari bilan sevadi. Samandar hayot sinovlari qarshisida ba’zan iztirob chekadi, ba’zan tushkunlikka tushadi, ba’zan esa o’zining joniga qasd qilgisi keladi, biroq hech qachon Saboga bo’lgan kuchli muhabbatidan vos kecholmaydi. Bu esa uning xarakteridagi sadoqatni va qat’iyatlilikni ifodalaydi. Ko’pchilik uchun ayriliq (boshqa inson bilan turmush qurib farzandli bo’lish) sevgining nobud bo’lishi bo’lsa, Samandar va Sabo uchun his-tuyg’ularning yanada yaqinlashuvi demakdir. U Saboni ko’rmasa ham, his etadi, uning ovozi va o’ziga xos chiroyini, kulishlarini xotirasida, xayollarida olib yuradi, unga atab she’rlar yozadi, nomini qalbiga muhrlab qo’yadi. Demak, bu obraz yonish orqali yashash, iztirob orqali poklanish va sinov orqali kamol topish kabi ramziy ma’noda qo’llanilgan.

“Sabo” – bu xushxabar eltuvchi, qalbni uyg’otuvchi, sog’inchi va muhabbatni tashuvchi mayin shamol ma’nosida keladi. Sharq she’riyatida sabo ko’pincha oshiqning yoriga yetolmagan tuyg’ularini olib boruvchi vosita, ya’ni ko’ngil elchisi vazifasini bajaradi. Shu jihatdan “Sabo” obrazi ramziy ma’noda noziklik, poklik, ayollik latofati, ichki go’zallik timsoli sifatida ham talqin qilinadi.

Sabo obrazi ushbu romanda ayol ruhiyating nozik, pok, sabr, fidoyi kabi xislatlarni birlashtirgan obrazdir. U ham Samandar kabi sevadi, faqat o’z sevgisini sabr va ma’naviyat bilan boshqarib sevadi. U o’z sevgisini oshkora ifodalamasdan,





ITALY

## SCIENCE AND INNOVATION IN THE EDUCATION SYSTEM

International scientific-online conference



ITALY

ko'roq ichki dunyosida saqlaydi, natijada yurak kasalligiga duchor bo'ladi. Uning kasbi radio boshlovchisi bo'ladi va uning obraziga qandaydir ramziy ma'no beradi. Radio orqali Saboning mayin ovozi, shirin so'zlari yuraklarga yetib boradi, oshig'ining qalbiga bevosita yetib boruvchi ko'prik vazifasini ham o'taydi. Asar davomida tashqi tomondan Sabo ham dugonalari kabi turmush quradi, farzandli bo'ladi, ota-onasini rozi qiladi, jamiyat talab qilgan barcha vazifalarni bajaradi, lekin ichki kechinmalari vayronaga aylanadi. Hayoti davom etsa ham, vaqt shamolday uchsa ham, muhabbat o'z qobig'ini o'zgartirsa ham, qalbida Samandar degan nom o'chmaydi. Hatto tushlarida ham uning nomi namoyon boladi. Bu holat Sabo obrazini ruhiy-falsafiy timsol darajasiga ko'taradi. Shuningdek, uning vaqt va masofa bilan o'lchanmaydigan sof muhabbati Sharq adabiyotida fidoyilik va poklik timsoli bo'lib xizmat qiladi. Bu obrazning eng ta'sirli jihatlaridan biri uning sog'liq va kasallik o'rtasidagi kurashuvidir. U yurak xastaligiga duchor bo'lsa-da, boshqa bir sog'lom yurak qo'yishini xohlamaydi, bu esa muhabbatning yagona ekanligidan darak beradi. Sabo uchun uning yuragi oddiy bir organ emas, balki Samandar bilan bog'laydigan ruhiy vositadir. Shuning uchun u birovning yuragini qabul qilmasdan, o'zining haqiqiy sevgisi bilan oz bo'lsada yashashni afzal biladi.

- Muxabbat... kishiga baxt keltirishi kerak, o'rtaga cho'kkan jimlikni buzib tilga

kirdi Aziza, - yo'qsa, aql-idrokka suyanib undan voz kechiladi. Axir, ikki kishi bir-birini sevsay-u, bu tuyg'u ularga faqat kulfat, g'am-alam keltirsa — buning nimasi yaxshi? Sevgi ham, asli, odamlar uchun, ularning baxt-saodati uchun, tog'rimasmi? Shunaqeykan, nega endi u insonga shod-xurramlik emas, mudom g'ussa keltirishi kerak?.. [1,28]

Romandagi yana bir obrazlardan biri Aziza. Yuqorida keltirilgan parchadan Azizaning sevgiga nisbatan munosabatini bilish mumkin. U sevgini inson baxti bilan bog'liq ijtimoiy hodisa sifatida biladi. Muhabbat insonni ezib qo'ymasligi, aksincha, unga baxt va xotirjamlik olib kelishi kerakligini aytadi. Shuningdek, agar sevgi insonga azob bersa, undan vos kechish kerak degan qarashni ham ilgari suradi. Bu esa uning aql va qalb muvozanatini saqlashga intilishini ko'rsatadi. Biroq Azizaning hayotida ham ichki ziddiyatlar mavjud. U Samandarni chin dildan yaxshi ko'rardi, ammo bunga erisha olmaydi, Sabo kabi boshqasi bilan turmush quradi ba baxtni his qilishdan bahrum bo'ladi. Aziza obrazining eng muhim jihatlaridan biri shuki, u bir tomondan Nodir va Nilufarning tanlovini ma'qullamasa ham, keyin hayoti davomida ularning chin sevgisini tushunadi va o'z qiziga Nilufar ismini qo'yib, ichki kechinmalarini va yashirin hissiyotlarini





ITALY

## SCIENCE AND INNOVATION IN THE EDUCATION SYSTEM

International scientific-online conference



ITALY

ko'rsatib qo'yadi. Bu voqealar Azizaning nafaqat aql bilan, balki qalb bilan ham yashashini ifodalaydi desak mubolag'a bo'lmaydi.

Sherdil obrazi romanda texnika va insoniy tuyg'ular o'rtasida qolgan murakkab xarakterga ega obrazlardan hisoblanadi. U bolaligidan ota-onasi tomonidan shaharga olib kelinadi va shu hayotga ko'nikib yashaydi. Uning hayot yo'li texnika va ilm-fan bilan bog'lanib qolgan. Shuning uchun unda hissiyotdan ko'ra, hisob- kitob va mantiq ustuvorlik qiladi. U muhabbatni inson hayotidagi asosiy mazmun deb bilmaydi, aksincha, uni ikkinchi darajali, hatto ba'zan keraksiz tuyg'u deb ham ataydi. Shu bois u o'zini turli xil hissiyotlardan holi, faqat robotlar yashash uchun kerakli deb hisoblaydi. Bu holat uning ota-onasiga nisbatan munosabatida ham seziladi. U ularga nisbatan farzandlik burchini ado etolmaydi hamda mehrlil bo'lolmaydi. Biroq, tashqi tomondan his-tuyg'ulardan uzoq ko'ringan bu obraz aslida ich-ichida ruhiy kurashni boshdan kechirgan bo'ladi, ya'ni asarning kulminatsion nuqtasida Sherdilning Sabo bilan bog'liq achchiq va kutilmagan haqiqati ochiladi.

Saman, meni kechirishing kerak. Chunki men sen bilmagan bir mudxish ishga qo'l urganman. Xa-xa, mudxish bir xatoga! Men... men Saboni sendan tortib olganman. U mening xotinim, bolalarimning onasi edi...[1,376]

Sherdil Samandar va Sabo vafot etgandan so'ng, o'z xatolarini tushunib yetadi, afsuski, bu tushunish juda kech sodir bo'ladi. Uning "Men Saboni sendan tortib olganman..." degan gaplari uning ichki hissiyot, iztirob, alamlarini ifodalaydi. U hayotining oxirida sevgi va insoniy munosabatlarning o'rnini hech nima bosa olmasligini anglab yetadi.

Xulosa qilib aytganda, Ulug'bek Hamdamning "Sabo va Samandar" romani zamonaviy o'zbek nasrida muhabbat, inson ruhiyati va ma'naviy izlanishlarni chuqur falsafiy-psixologik yo'sinda yoritgan eng sara asarlardan biri hisoblanadi. Asar o'zining murakkab obrazlari, ramziy-falsafiy ifoda uslubi bilan o'quvchini chuqur mushohadaga chorlaydi. Unda yaratilgan har bir obraz – Samandar, Sabo, Nodir, Nilufar, Aziza va Sherdil – o'ziga xos ichki dunyoga ega bo'lib, murakkab tuyg'ular, hayotiy sinovlar hamda ma'naviy qarorlar iskanjasida shakllanadi.

Samandar va Sabo obrazlari ilohiy ishq, pok muhabbat va ruhiy sadoqat timsoli sifatida gavdalanadi. Shuningdek, yozuvchi ushbu obrazlar orqali jamiyatdagi "ota-ona orzusi", ijtimoiy bosim kabi munosabatlarni ham ochib beradi. Romanning asosiy g'oyalaridan biri bu – insoniy tuyg'ular va muhabbat hech qachon yo'qolmaydi, aksincha, ular inson qalbidagi yashashda davom etadi.





Shu sababli bu roman nafaqat sevgi haqida asar, balki inson ruhiy olami, hayot ma'nosi va ma'naviy izlanishlar haqidagi chuqur falsafiy ma'noga ham ega asar.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

- 1.Hamdani Ulug'bek. Sabo va Samandar.T.: Oltin qalam, 2025.
2. Sulton I. Adabiyot nazariyasi-T.: "O'qituvchi", 2005.
- 3.Quronov D. Adabiyot nazariyasi asoslari-T.: "Navoiy universiteti", 2018.
- 4.Ulug'ov A. Adabiyotshunoslik nazariyasi-T.: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2017.
- 5.Bahodir Karim. Ruhiyat alifbosi-T.: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2018.
- 6.Ulug'ov A. Adabiy qahramon obrazi.
- 7.Umurov H. Adabiyotshunoslik nazariyasi-T.: "A.Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti", 2004.
- 8.<https://share.google/aktStdMPpZSDolGHn>
- 9.<https://share.google/iiBhEblkEs2WBiBvT>
- 10.<https://oefen.uz/ru/documents/diplom-ishlar/umumiy/ulug-bek-hamdanning-ota-romanida-psixologik-tahlil>.

